



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

F.L.AZIZOVA

Ma'lumot va nazorat uchun

№04-03/-261

2 Fevral 2024

SH.A.BOYMURADOV

Проректор





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2024 yil "2"fevral

02-28/2162-son

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Sog'liqni saqlash
vazirligi, viloyatlar va Toshkent
shahar sog'liqni saqlash
boshqarmalari**

**Vazirlik tasarrufidagi barcha
tibbiyat oliy ta'lim muassasalari
va ilmiy tashkilotlarga**

Toshkent tibbiyat akademiyasining Termiz filiali tomonidan rejalshtirilgan
**"Regenerativ tibbiyat: innovatsion yondashuv, kasalliklarni davolash uchun
amaliyot vrachining imkoniyatlari doirasi" mavzusidagi
I-Xalqaro ilmiy-amaliy gibridd konferensiyasini o'tkazish to'g'risida
TOPSHIRIQ XATI**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yilga
mo'ljallangan asosiy tashkiliy tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. 2024-yilning 4-5-mart kunlari Termiz shahri "Imom at-Termiziyl xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi" anjumanlar zalida **"Regenerativ tibbiyat: innovatsion
yondashuv, kasalliklarni davolash uchun amaliyot vrachining imkoniyatlari
doirasi"** mavzusidagi I-Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi gibridd shaklida
o'tkazilsin.
2. Konferensiya ishtirokchilari o'rinnari taqsimoti ilovaga muvofiq
tasdiqlansin.
3. Tibbiyat xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi direktori
(X.Akilov), Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i (O'.Ismailov),
Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva) konferensiyaga
puxta tayyorgarlik ko'rgan holda, belgilangan muddatda yuqori ilmiy va tashkiliy
saviyada o'tkazilishini ta'minlasin.
4. Tibbiyat xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi direktori
X.Akilovga:

sertifikatlarni tayyorlash va konferensiya ishtirokchilarini o'rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan ta'minlash amalga oshirilsin;

konferensiyani o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-xarajatlar homiylar

va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin;

tadbir tashkilotchilari Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagagi "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 205-son qarori bilan tasdiqlangan hisobotni **3 kun** muddat ichida vazirlikning Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etilishi ta'minlansin.

5. Tadbir bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali yoritish Matbuot va PR xizmati rahbari F. Sanayevga yuklansin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, tibbiyat oliv o'quv yurtlari rektorlari,

ilmiy-tashkilotlar direktorlariga ilovaga muvofiq konferensiyada qatnashish uchun o'z vakillarini qatnashishini ta'minlasin.

7. Ushbu ko'rsatma xat ijrosining nazoratini Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i O'.Ismailov zimmasiga yuklansin.

**Vazirning birinchi
o'rinnbosari v.b.**

D.Sultanov

